

## QIYOSLANAYOTGAN TILLARDA QURILISH ATAMALARINING UMUMIY SEMANTIK XUSUSIYATLARI DOIRASIDA TAHLIL QILISH

**Sobirov Otabek Qodirovich,**

*Qo'qon Universiteti Andijon filiali, Ingliz filologiyasi  
kafedrasida dotsenti v.b. (PhD) f.f.f.d.*

*E-Mail: [otabeksobirov774@gmail.com](mailto:otabeksobirov774@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Maqolada tizim munosabatlari bo'yicha mavjud adabiyotlarni umumlashtirish va lug'at doirasida turli xil leksiko-semantik munosabatlarni o'rnatish va tashqi lingvistik qatorlar bilan referensial korrelyatsiyaning onomasiologik va semasiologik jihatlarida qurilish terminologiyasining lug'atini tahlil qilish natijalari bizga quyidagi "paradigmatik maydonlar, semasiologik maydonlar, mantiqiy tushunarli (tematik) maydonlar, leksik-tematik guruhlar, leksik-semantik guruhlar" kabi umumiy turlarni aniqlashga harakat qilingan.

**Kalit so'zlar:** terminologik, hususiyat, polisemiya, chog'ishtirilayotgan, sinonimiya, omonimiya.

**Annotation.** The article summarizes the existing literature on system relations and attempts to identify such general types as "paradigmatic fields, semasiological fields, logically understandable (thematic) fields, lexical-thematic groups, lexical-semantic groups" based on the results of the analysis of the dictionary of construction terminology in the onomasiological and semasiological aspects of establishing various lexical-semantic relations within the dictionary and referential correlation with external linguistic series.

**Key words:** terminological, specificity, polysemy, comparison, synonymy, homonymy.

**Аннотация.** В статье обобщается существующая литература по системным отношениям и предпринимается попытка определить такие общие типы, как «парадигматические поля, семасиологические поля, логически понятные (тематические) поля, лексико-тематические группы, лексико-семантические группы», на основе результатов анализа словаря конструкционной терминологии в ономасиологических и семасиологических аспектах установления различных лексико-семантических отношений внутри словаря и референциальной корреляции с внешними языковыми рядами.

**Ключевые слова:** терминологический, специфичность, полисемия, сравнение, синонимия, омонимия.

**Kirish.** Qurilish atamalariga oid so'zlarni semantik ma'nolarini o'rganish, insoniyat yashash tarzi va ularning mentalitetiga bog'liq munosabatlar o'rganilayotgan tillarning lug'at boyligiga bog'liq. Tizim munosabatlari bo'yicha mavjud adabiyotlarni umumlashtirish va lug'at doirasida turli xil leksiko-semantik munosabatlarni o'rnatish va tashqi lingvistik qatorlar bilan referensial korrelyatsiyaning onomasiologik va semasiologik jihatlarida qurilish terminologiyasining lug'atini tahlil qilish natijalari bizga quyidagi "paradigmatik maydonlar, semasiologik maydonlar, mantiqiy tushunarli (tematik) maydonlar, leksik-tematik guruhlar, leksik-semantik guruhlar" kabi umumiy turlarni aniqlashga harakat qilish imkonini beradi.

Umumiy semantik xususiyat doirasida o'zining tipik, o'ziga xos va hokazolarga bo'linish xususiyatlari butun leksik-tematik guruh ichidagi atamalarining o'zaro semantik bog'liqligini ko'rsatadi. Qurilish so'zi barcha o'rganilgan atamalarining semantik yadrosi sifatida e'tirof etilsa, qolgan leksik guruhlariga ajratilgan atamalar dominant vazifasini bajaradi. Barcha guruhlar kichrayib kichik-kichik guruhchalarga bo'linadi va ularning xar

biri umumiy semantik xususiyatni tashkil etadi. Har bir soʻz leksik-tematik guruh semantik maʼnosining oʻziga xos xususiyati namoyon boʻlishi bilan maxsus guruhga birlashtiriladi va shunga asoslanib, qurilish atamalariga oid soʻzlarning lugʻatlardagi ierarxik maʼnolari tizimli ravishda oʻrganiladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Ingliz va oʻzbek tillarida polisemiya tilning leksik tizimida ishlaydigan asosiy semantik hodisalardan biridir. Koʻp ishlatiladigan tilning oʻziga xos xususiyati polisemiyaning keng taʼsiridir. Umumiy tildagi koʻplab soʻzlar bir emas, balki bir nechta (ikki yoki undan ortiq) maʼnoga ega, shuningdek, voqelikning turli obyektlari va hodisalarini ifodalash uchun xizmat qiladi. Atamalarni oʻrganishdan maqsad, soʻzning konseptual tariflarining mavjudligi, ilmiy tushunchalar bilan bogʻliqligi, stilistik boʻyoqdorligi, soʻz sifatida ishlash xususiyatlarini belgilaydi.

Polisemiya hodisasini atamashunoslikka taʼsiri, avvalo, atamani ishlatilish oʻrnini aniqlab olishdir.

Masalan: “*qurilish – fan, qurilish -(uy)*” obyekt sifatida. Umumiy shaklda bularni ajratib olish kontekstga bogʻliq boʻlib qoladi. Ingliz va oʻzbek tillarida qurilish terminologiyasining tahlili shuni koʻrsatadiki, ushbu fan sohasi atamashunosligining shakllantirishda noaniqlik hodisasi asosiy hisoblanadi. Atamalar noaniqligi bilan ajralib, ularning leksik-semantik xususiyatlarining shakllanishi lingvistik asoslarga mos keladi.

Maʼlumki, koʻp hollarda chogʻishtirilayotgan tillarda foydalanilayotgan atamalarning noaniq yoki notoʻgʻri ishlatilishining guvohi boʻlib qolamiz. Shunday hollarda ular qurilish obyektidagi turli maʼnolarni anglatilish jarayonlarini bildiradi. Biz yuqorida taʼkidlaganimizdek, oʻzbek tilida qurilish atamasidagi “*tom*” soʻzi polisemiya belgilarini koʻrsatib, semantik tuzilishda bir-biridan ajralib turadigan turli xil tushunchalarni ifodalaydi. Bu atamaning har bir oʻziga xos maʼnosi aslida omonimiya hodisasini ifodalayapti, masalan: *tom – uyning, binoning ustini berkitib turuvchi tepa qismi, tom – tamomila, butunlay, (Qulogʻim tom bitti), tom – bir necha kitobdan iborat asar, asarlar toʻplami* kabi maʼnolarini koʻrsatishimiz mumkin.

Oʻzbek tilida “uy tepasidagi ustki tuzilma”ni tushuntirish uchun ishlatiladigan “bolaxona” atamasi xar ikki tilda noaniq boʻladi. Hozirgi kunda oʻzbek tilida kottej, yangi loyihadagi uylarning qismlarini belgilash uchun yangi turdagi uylarni qurishda “bolaxona” atamasini oʻzaro bogʻlashda bu atama yangi maʼnolarga ega boʻladi: 1) uyning yuqori ikkinchi qavati; 2) qiyali tomning; 3) uyning yuqori tuzilmasi kabi maʼnolarni ham ifodalaydi. Ushbu tushunchalarni bildirish uchun zamonaviy oʻzbek tilida qoʻllanilganda, “bolaxona” atamasi maʼnolarini yanada kengroq oʻrganish maqsadga muvofiq boʻladi. Qurilish sohasida shunga oʻxshash bir necha terminlar mavjud boʻlib, bu atamalarni oʻrganishda aynan mahalliy aholining fikri va dunyoqarashi bilan uning bir necha maʼnolarini oʻrganish mumkin. Masalan, quyidagi soʻzlar “*ayvon, naves, panjara, taxta usti, taxta shakli, uslubi, zinapoyasi, dekor*” yuqorida aytib oʻtilgan soʻzlarning tahrirlashga asos boʻladi.

**Natijalar va muhokama.** Ingliz tilidagi “house” so‘zining umumiy semantik ma'nosi “biror maqsad uchun mo‘ljallangan bino” degan tarjimada kelsa-da, ayrim so‘zlarga qo‘shilib maxsus ma'noga ega bo‘lar ekan. Biz ularni quyidagi guruhlariga bo‘lib chiqdik:

A) “house” turar joy yoki kulba degan ma'noni anglatadi: *glass-house, hot house, green-house, lodging-house, single - family house, tenement-house, town-house, wattle-house, mansion-house*;

B) “house” uylarni sifatini ifodalovchi nomlari: *basement-house, duplex-house, detached-house, half-timber house*;

S) “house” uylarni shaklini ifodalovchi nomlari: *frame-type house, panel-type house, roundhouse, study-house*;

D) “house” biror ijtimoiy talabni qondirishga qaratilgan muassasa: *bath-house, block-house, bunk-house, fire-house, gashouse, wainhouse*.

Shuningdek, ingliz tilidagi “room” so‘zining ham semantik ma'nosiga e'tibor qaratganimizda, birinchi ma'nosi “uy, turar joy, bino” bo‘lsa, ayrim so‘zlar oldiga qo‘shilishi bilan muayyan maqsad uchun ajratilgan alohida joylarning nomlarini ifodalashiga guvoh bo‘ldik. Ushbu so‘zlar “room -xona” ma'nosida emas, muayyan maqsadda ishlatiladi: *committee room, mud - room, reading-room, sleeping-room, storing, storing-room, board-room*. Yuqoridagi so‘zlar biror ijtimoiy maqsad uchun talabni qondirishga qaratilgan binodir. Ko‘rinib turibdiki, ikki tilda tet-tez foydalaniladigan so‘zlarni chog‘ishtirma tahlili shuni ko‘rsatadiki, bundaylar tillardagi so‘zning ma'nolarini rivojlantiradi qolaversa, so‘zning ikkilamchi tomoni polisemantik xususiyatga ega bo‘ladi.

Zamonaviy o‘zbek tilida “pillapoya” so‘zi bir necha ma'noga ega. “Pillapoya” so‘zining nominativ ma'nosining leksik-semantik o‘zgarishi, uning rivojlanishi ushbu mazmundagi so‘zning o‘xshash ma'nolarida foydalanishga asos bo‘la oladi. “Oyoq qo‘yadigan pog‘ona” ma'nosidagi semantik umumiylik “pillapoya” so‘zining asosiy nomlanishiga aylandi. Masalan: pillapoya pog‘onasi. “Pillapoya” so‘zining semantikasini yanada shakllantirishda ma'lum bir maqsad uchun ajratilgan “o‘shish, ko‘tarilish” kabi ma'nolaridan foydalanish mumkin. “O‘shish, ko‘tarilish” so‘zlarining semantik tuzilishining asosiy tarkibiy qismlaridan foydalangan holda o‘xshashlik asosida ma'no ishlab chiqish – “pillapoya” so‘zining nominativ ma'nosi, shuningdek, ushbu so‘zning boshqa ma'nosini shakllantirish uchun asos bo‘ldi. Masalan: “*martaba, unvon kabilarning har bir bosqichi*” ma'nosi “pillapoya” so‘zidagi asosiy ma'nolardan biriga aylanadi va funksional vazifasi ham aniqlashadi. Shu bilan birga, keltirilgan misollarda “pillapoya” so‘zining asosiy ma'nosi “pog‘ona” so‘zining asosiy ma'nolaridan biri sifatida tushuniladi.

Shunday qilib, qurilish atamalariga oid so‘zlarning ma'nolarini shakllantirish chog‘ishtirilayotgan tillarning ierarxik munosabatiga bog‘liq bo‘lgan polesemantik xususiyatlarga bog‘liq. Lekin ba’zida polisemiyaning leksik-semantik hodisasi maxsus tushunchalar belgisi sifatida atamalarining o‘ziga xos xususiyatlariga zid keladi. Shuning

uchun atamalar nomlarining noaniqligi, birinchi navbatda, qurilish atamalariga oid lugʻatlar ishlab chiqilmaganligidan dalolat beradi. Koʻp hollarda oʻzbek tilining qurilish atamaları tarkibiga rus tilidan kirib kelgan soʻzlar sezilarli taʼsir koʻrsatib, u polisemiya va sinonimiyaning rivojlanishiga sezilarli taʼsir koʻrsatdi va biz sinonimlarni quyidagi rus tilidan kirib kelgan soʻzlar maʼnolari bilan solishtirdik: *tim*, *yopiq bozori* – *крытый рынок*; *nur*, *oʻq, shpal* - *ругель*; *kasb, hunarmandchilik* - *ремесло*; *temir yoʻl, xatchoʻp* - *рейсмус*; *tank, toʻshak*; *pichoq, oʻyma pichoq* - *резец*; *xarajat, xarajat qilmoq* - *расход*; *qazish* – *раскопку shunga oʻxshash*. Qurilish atamalariga oid soʻzlarda sinonimiyaning mavjudligi sohaga oid lugʻatlardagi soʻzlarning maʼnolarini noaniqligidan dalolat beradi, chunki sinonimlarni tanlashda soʻzlarning aynan asl maʼnodagi soʻzni emas, balki ushbu atamalarni tushunchasini beruvchi semantikashtirish usullaridan biridir. Sinonimiyaning leksik-semantik hodisasiga kelsak, ikkala tilda ham qurilish atamalariga oid lugʻat ushbu kamchilikdan holi emas. Chogʻishtirilayotgan tillarda sinonimiya keng tarqalgan boʻlib, bu jarayonning tarkibiga eski va arxaik soʻzlar ham kiradi. Oʻzbek tilida bunday sinonimlar orasida chodir va sipoh; kasb va kasb-kor; koʻprik va tirkak; hajmi va qatlam; haykaltaroshlik va bezakchi; *asbob-uskunalari* va *jihozlari, vositalari, asboblar, uskunalar*; *ish, vazifa, maqsad*; *oʻrin va joy*; *devor, toʻsiq, mezhdevor*; *urinish va harakatlanish*; *qurilish, maishiy, uy-joy*; *rom va ramka*; *sihatgoh, oromgoh, dam olish maskani, sanatoriy*; *qoplama va bezak* kabi koʻplab misollarni keltirish mumkin. Ingliz tilida esa, masalan, *coarse sand* (*kaba qum*) va *top sand* (*yuqori qum*); *crushed sand* (*silliqlik qum*) va *manufactured sand* (*sunʼiy qum*); *drawing room* (*mehmonxonasi*) va *drafting room* (*chizish xonasi*); *sleeping room* (*yotoqxonasi*) va *bed room* (*yotish xonasi*); *blunt pile* (*tuzaq ustuni*) va *charred pile* (*kulgan ustun*) kabi sinonimlar mavjud. Bu holat har ikkala tilning qurilish sohasidagi atamalar va tushunchalar oʻrtasidagi semantik aloqalarni aks ettiradi, bunda baʼzi sinonimlar aniq farqlanmagan holatlarda, baʼzilar esa maxsus kontekstlarda qoʻllaniladi.

Polisemiyaning yana bir leksik-semantik hodisasi bilan chambarchas bogʻliq boʻlgan turi bu – omonimiyadir. Omonimlar odatda tovushga mos keladigan, shakli bir xil, lekin maʼnolari bir-biri bilan hech qanday bogʻliq boʻlmagan soʻzlardir. Polisemiya soʻzning ichki semantik tuzilishining rivojlanishi va soʻzning turli leksik va semantik vazifalarida ishlatilib, turli matnlardagi soʻzning maʼnolarini anglatadi. Omonimlar faqat shaklda oʻxshash va mustaqil soʻzlardir. Bir soʻzni ikki xil tushuncha bilan oʻzaro bogʻlash atamashunoslikda omonimiyadan foydalanishda qarama-qarshilikka olib keladi, bu yerda har bir tushuncha ogʻzaki ravishda individual ravishda belgilanishi kerak. Terminologiyada omonimiya kutilmagan hodisa hisoblanadi. Qurilish atamalariga oid soʻzlar tahlili ingliz va oʻzbek tillarida omonimiyadan asossiz foydalanish holatlari ham mavjud ekanligini koʻrsatadi. Masalan: **oʻzbek tilida:** *andava* (1) – *somonli loy*; *andava* (23) – *ganch*; *andava* (3) – *suvash uchun ishlatiladigan dastali tagi sillikli asbob*; *tom* (1) – *uyunitng ustki qismi*; *tom*(2) – *boʻlim (kitoblarni)*; *tom* (3) – *butunlay, tamomila*; *blok* (1) –

*binoning ma'lum qismi; blok (2) – biror narsani bir o‘rami; blok (3) – davlatlardan tuzilgan ittifoq, koalitsiya; kran (1) – jumrak; kran (2) – og‘ir yuk ko‘taradigan mexanizm; dasta (1) – tutqich; dasta (2) – bog‘lam; dasta (3) – chillak; pul (1) – o‘lchov, qiymat, baho; pul (2) – sarmoya; pul (3) – ko‘prik; ingliz tilida: rule I -qoida; rule II -lineyka ; spur I -siqilgan element; spur II - to‘siq, qovurg‘a,; table I - jadval; table II - plastinka; tambour I - tambur; tambour II - devor; tambour III -baraban; tambour IV- kichkina stol; tee I - balka; tee II - uchamak; board I - doska; board II - kengash; body I - tana; body II - sport turi; booster - yordamchi ; booster II - madad; bolt I - bolt; bolt II - elak; bolt III - shovqin; bolt IV- o‘q.*

Chog‘ishtirilayotgan tillardan ko‘rinib turibdiki, qurilish atamalariga oid leksemalarda aksariyat omonimlar so‘zlardan foydalanilganda ularning ma'nolarini yanada kengayib boraveradi (*tom (1) – uynitng ustki qismi; tom(2) – bo‘lim (kitoblarni); tom (3) – butunlay, tamomila; yoki bolt I - bolt; bolt II - elak; bolt III -shovqin; bolt IV- o‘q.*

Shuningdek, ilmiy tadqiqot ishimizda antonimiyaga ham to‘xtaldik. Antonimiya atamalar lug‘atini shakllantirishida keng qo‘llaniladigan yetakchi leksik-semantik hodisalardan biri hisoblanadi. Antonimiyaning funksional-semantik xususiyati leksik birliklarning semantik qarama-qarshiligini belgilash, predmet va ulardagi hodisalarning muhim o‘ziga xos xarakterini ajratib beradi. Antonimiyaning bu xususiyatlari uning ikki tilda yangi atamalarni shakllantirishda yordam beradi. Antonimiya universal kategoriya hisoblanib, u barcha tillar uchun umumiydir. Ilm-fan tili umumiy tildan keng foydalanib, u ba'zi atamalarni nomlashda ularning antonimlaridan foydalanadi. Masalan: *xompishirilgan, yig‘ilgan-alohida, ichki-tashqi, yumshoq-qattiq, yengil-og‘ir, silliq-qo‘pol va shunga o‘xshash.* Ulardan nafaqat qurilish amaliyoti va fan sohasidagi obyektlar, hodisalarning sifat xususiyatlarini tavsiflashda, balki ularning asosiy xususiyati aniq ilmiy tushunchalarni ko‘rsatish uchun ham foydalaniladi. Masalan: *xom g‘isht-pishgan g‘isht; yengil sement beton - og‘ir sement beton; ichki kanalizasiya-tashqi kanalizasiya; qattiq qum - yumshoq qum.* Ingliz tilida ko‘plab atamalar antonimiyaning ushbu xususiyatidan foydalanishga asoslangan. "Inglizcha-ruscha qurilish lug‘ati" dagi "concrete" so‘zida quyidagi antonimik juftliklarni ko‘rib chiqamiz: *common-concrete - "og‘ir beton"; lightweight concrete - yengil beton ; finest concrete, and concrete - nozik qovurg‘ali beton ; coarse concrete ~ dag‘al beton; coarse asphalt-concrete - dag‘al asphalt-beton; finest-graded asphalt concrete - nozik asfal-tbeton; compressed concrete - siqilgan beton; heaped concrete - bo‘shashgan beton; loosely spread concrete -temiri bo‘lmagan beton; stamped concrete - temir-beton; armored concrete -temir qovug‘ali beton ; plain concrete – qalin bo‘lmagan beton.* Shuningdek, ko‘plab atamalar shakllanishida foydalaniladigan so‘zlar: *bearing -tashuvchi” – “unbearing – tushirmoq”; “light - yengil” – “heavy – og‘ir” ; “up – yuqoriga” - “down – pastga”; “in(side) – ichkariga” – “out(side) - tashqariga; “under – ostida” – “over – ustida”.* Shunday qilib, so‘zlarning antonimik shakllaridan foydalanish har ikki tilning qurilishi atamasida murakkab semantik

munosabatlarni ochib beradi. Bir-biriga antonim bo'lgan so'zlar nafaqat leksik-semantik hodisa sifatida, balki alohida juft so'zlarning semantik ma'nolarini tashkil etilishida yoki ma'lum bir lug'atlarni tizimlashtirishda, shuningdek, ularni ma'no qarama-qarshiligiga asoslangan guruhlarga birlashtirishda ham namoyon bo'ladi. Shunday qilib, terminologiyada ishlaydigan leksik-semantik hodisalar, umuman olganda, tilning umumiy tizimida ishlaydigan qonunlar chegarasidan tashqariga chiqmaydi. Shuning uchun sinonimiya, polisemiya va omonimiya belgilari atamalar guruhini shakllanishida va toifalarga bo'linishida katta ahamiyat kasb etadi.

Qurilish atamalarini leksik-semantik guruhlarini tashkil etishda ko'p ishlatiladigan so'zlarni semantik tahlil qilish usullari muhim ahamiyatga ega. So'zlarning yangi sinfiga nisbatan tez - tez ishlatiladigan so'zlardan foydalanish - bu ularning tovush shaklini yangi obyektlar va hodisalar nomiga oddiy o'tkazish emas, balki ma'lum bir o'zgarishni, tez-tez ishlatiladigan so'zlarning nominativ yoki rag'batlantiruvchi ma'nosini o'zgartirishni talab qiladi. Ko'p ishlatiladigan so'zlarning atamalar qatoriga kirishida ularning semantik tuzilishida ma'lum o'zgarishlar sodir bo'ladi. So'zlarning maxsus semantik qatlami sifatida atamaga qo'yiladigan talablarga muvofiqlashtiriladi.

Ma'lumki, atamani tavsiflovchi konseptuallikning yakuniy yutug'i so'zlarning semantik izchilligining eng muhim belgisidir. Tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki, tez-tez foydalaniladigan so'zlarning ma'lum soha atamalarga a'zo bo'lishi, ularning semantik terminologizatsiyasi bo'lib, unda so'zning semantik tuzilishidagi konseptual korrelyatsiya ma'lum chegaraga yetadi.

Har bir so'z dastlab konseptual ma'noga ega bo'ladi. Hatto eng "ekzistensial" so'zlarda ham - hayvonlarning nomlari, uy-ro'zg'or buyumlari, qarindoshlik munosabatlari va shu kabi so'zlar sinfini belgilash sifatida ifodalash mumkin. Terminlasuv jarayonida ko'p foydalanadigan so'zlarning dastlabki konseptual korrelyatsiyasi ulardagi terminologik xususiyatlarni shakllantirish uchun asos bo'ladi. Umuman olganda, agar biz terminologiyani nominatsiya usuli sifatida tavsiflasak, aslida u so'zning semantik tuzilishida sodir bo'layotgan rivojlanish va o'zgarishlarga xos bo'lgan bir xil atama usullarini ifodalaydi. So'zning terminologik ma'nosi mavjud ma'no asosida rivojlanadi, bu uning uchun yangi nomlanuvchi ma'noga aylanadi. Shuning uchun tez-tez ishlatiladigan so'zlarning terminlashuvi polisemik shakllanish jarayonlaridan biri bo'lib, atamaga xos ma'no ko'p ishlatiladigan so'zning semantik tuzilishidagi leksik-semantik variantlardan biridir. Har ikki tillarda so'zning semantikasi atamaning bir xil aniqligi tufayli katta konseptual aniq ma'noga ega bo'ladi. So'zning umumiy semantik tuzilishida o'zgarishlar ro'y bersa-da, so'z terminologik ma'nosi tufayli uni kengaytiradi. Qiyoslanayotgan tillarda juda ko'p foydalanadigan so'zlar terminlashuvida so'zning semantik ma'nolari kengayadi. Buni hunarmandlarning ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq aniq buyumlar nomlarining semantik tahlili tasdiqlaydi. Quyidagi so'zlarning semantik ma'nolarini kengaytirish, qurilish sanoatining o'ziga xos tushunchalarini ochib berishidan dalolat beradi: **ingliz**

**tilida:** *pincers, nippers, tongs; saw; hammer; scoop; shovel, spade; set square; scrap iron; axe; plane; naildrawer; instrument; pick, axe, pick-mattock; wheel; barrow; bucket, pail, bare; palette; border; broach; nail; look; back sap; solution; bricknagged; board; beam; bass; bar; bulk; stone; black; brick; adobe; burnt, baked-brick; weak solution; strong solution; white wash; motor, group; limestone; blend; bent; badigeon; barrier; t holder, bracket, corbel; alabaster; plaster; o‘zbek tilida:* *o‘nbir, qisqich; arra; bolg‘a; belkurak; bolta; randa; tirnoq; asbob, iskana; chelak; gips; burg‘ulash; qulf; duradgor; xoda; loy; ramka; tosh; taxtalar; qattiq loy; taxa, g‘isht; xom g‘isht; tayyorlangan g‘isht; ohak; qattiq ohak; ohaktosh; aralashmagips va toshli loy; g‘ildirak; kurak; paqir, chelak; Yuqoridagi so‘zlar mahalliy tilda o‘z maqomiga ega, lekin foydalanish jarayonida ularning yangi semantik ma'nolarini ham uchratishimiz mumkin.*

Tahlillardan ko‘rinib turibdiki, qiyoslanayotgan tillarda foydalanilgan so‘zning semantik tuzilish shakli kengayishi mumkin. Buni esa qurilish bilan bog‘liq aniq buyumlar nomlarining semantik tahlili tasdiqlaydi. Biz quyidagi so‘zlarning tez-tez foydalanish jarayonida ulurning ma'nolarini kengaytirish va qurilish sanoatining o‘ziga xos tushunchalarini ifodalashi guvohi bo‘ldik: **o‘zbek tilida:** *qozon, sham, ombir, tikuv, kamar, bel, belkurak (mexanik belkurak), randa, (qo‘lda, elektr qo‘llanma), burg‘ulash (mexanik burg‘ulash, elektr burg‘ulash), yashovchi (beton yashovchi), plita (beton plita) (umumiy belgidan o‘ziga xos belgigacha); ingliz tilida:* *beam, oleg, list, lock, real, ring, rod, levelling – rod, joint, bed – joint, head – joint va h.k..*

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, qiyoslanayotgan tillarda qurilish atamalariga oid so‘zlarni shakllantirish usullarini tahlil qilish atamashunoslik fanini o‘rganishning ajralmas bir qismi bo‘lib, u tillardagi lug‘atlarning maxsus qatlami sifatida ishlash xususiyatlarini kengaytiradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti // [www.ziyouz.com kutubxonasi]. B.–431.
2. M.Qambarova. Ingliz va o‘zbek tillarida arxitektura-qurilish terminlari semantikasi hamda ularning korpuslarda berilishi: Filol. fanlari falsafa d-ri. diss. – Toshkent, 2023. B.– 116.
3. Macmillan English dictionary for advanced learners second edition. M.Shovel. – London: Macmillan Publisher, 2007. P.– 2708.
4. Крысин Л.П. Толковый словарь иноязычных слов / Крысин Л.П. – Москва: Эксмо, 2010. С.– 944.
5. Kandelaki T.L. Semantics and motivation terms. - M.: Nauka, 1977. - 7 p.
6. Reformatsky A.A. Mysli about terminology // Sovremennye problemy russkoy terminologiy. - M.: Nauka, 1986. - 11 p.
7. Cambridge Advanced Learners“ Dictionary. Oxford publishing house 2006. – 1129 p.
8. Maxmaraimova Sh. Hozirgi o‘zbek tili leksikologiyasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Firdavs-Shoh nashriyoti, 2021.
9. Reformatskiy A.A. Misli o terminologii // Sovremennoe problema russkoy terminologii. – M.: Nauka, 1986. – 11 s.
10. Воробьев В.В. Лингвокультуроология. – Москва: Издательство Российского университета дружбы народов, 2006. С.– 112.